

Tarixi



Kafedra mudiri

Qodirov Dilshod Botirovich, PhD

Tel:71 237-19-68

Email: d.kodirov@tiame.uz

“Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchi energiya manbalari” kafedrasini 2004 yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining “Qishloq va suv xo‘jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi” 415-sonli qarorini bajarish maqsadida institutning 2004 yil 13.09 dagi 187-F buyrug‘iga asosan Toshkent Irrigatsiya va melioratsiya intstitutining tashkiliy tuzilmasi ijrosida tashkil etilgan. Kafedra dastlab 1979 yil 15 dekabrda “Elektr yuritmalar va elektr energiyasini qo‘llash” kafedrasidan “Qishloq xo‘jaligida elektr energiyani qo‘llash” nomi bilan ajralib chiqqan. Institut ilmiy kengashining qaroriga ko‘ra 2001 yil 5 iyundan “Elektrotexnologiya” va “Elektr uskunalari ekspluatatsiyasi va ta’miri” nomi bilan ataldi. Kafedrada tashkil etilgan kundan 2004 yilgacha professor A.R.Radjabov xabarlik qilgan. 2004 yildan 2011 yilgacha dotsent A.S. Berdishev kafedraga mudirlik qilib kelgan. Kafedra a‘zolari fakul’tetning ilmiy-tarbiyaviy faoliyatida faol ishtirok etib kelganlar. Kafedrada professorlar Radjabov A.R., Ismoilov M.I. Muxammadiev A.M., Musabekov N.M., Muratov X.M. doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilib, har birlari o‘z ilmiy maktabini yaratganlar. O‘sha yillarda yana kafedrada quyidagi olimlar t.f.n. dissertatsiyasini tayyorlab, himoya qildilar; M.M. Egamberdiev, I.D. Toshev, I.N. Belokovskiy, M.I. Ibragimov, Sh.M. Muzafarov, A.D.Raxmatov, T.M. Bayzakov, N.T. Toshpo‘lotov, B.Sh. Fayzullaev, A.J. Isoqov, O.T. Axmedov, A.Bakiev, I. Nuritov, D.Raxmatov, Abdulla Said Marshed, Rabbabax A., May Van Xuan. Ular hozirda Respublikamizning turli muassasa va tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatib turibdilar.

Kafedra tashkil qilingan paytdan buyon “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarida elektrotexnologiya usullarni qo‘llash” mavzusida ilmiy maktab hozirgi kunda ham Respublikamizda salohiyati yo‘nalishlardan biri deb hisoblanadi. 2010 yil oxirida Primov Odil kandidatlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va hozirda Institutning Buxoro filialida o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. 2020-2021 o‘quv yili davomida Muzafarov Sh.M. professor, D.B. Qodirovlar esa dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘ldilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 maydagi PQ-3003-sonli qaroriga asosan kafedraning

“Suv xo’jaligida elektr ta’minoti va elektr jixozlaridan foydalanish” nomi “Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchi energiya manbalari”ga o’zgartirildi.

[Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti fakulteti](#) [O'qitiladigan fanlar](#) [Ilmiy ishlar](#) [Tadqiqotchilar](#) [Hamkorlar](#) [Kafedra xodimlari](#) [To'garaklar](#) [Dars jadvali](#) [Aloqa](#)